

O‘TROR FOJIASI

Hojiyev Jahongir Davlat o‘g‘li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Magistratura bo‘limi Tarix mutaxassisligi 2- kurs magistranti.

E- mail: jahongirxajiyev2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18518517>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm shohlar davlatiga bostirib kirgan mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi O‘tror shahari aholisining mardonavor kurashlari va bosqinchi mo‘g‘ullarning O‘tror shaharida amalga oshirgan vayronagarchiliklari tahlil qilinadi. Yozma manbalar va tarixiy dalillar asosida O‘trorliklarning mo‘g‘ullarga qarshi mardonavor kurashlari o‘z shaharlarini dushmanga osonlikcha taslim bo‘lmaslik uchun mardonavor kurashganlar.

Ushbu maqolada ajdodlarimizning ona yurt tinchligi osoyishtaligi uchun bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashlari O‘tror shahri miqyosida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ajdodlarimizning yurtimizga bostirib kirgan dushmanlarga qarshi olib borgan mardonavor kurashlari vatan ozodligi yo‘lida jonini fido qilgan ajdodlarimiz tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: mo‘g‘ul qo‘shinlarining O‘trorga bostirib kirishi. Shahar mudofasi va xalqning qarshiligi, shahar qulashi va vayron bo‘lishi.

Аннотация. В данной статье анализируется доблестная борьба жителей города Отрара против монгольских захватчиков, вторгшихся в государство хорезмийских царей, и разрушения, причиненные вторжением монголов в город Отрар. На основании письменных источников и исторических свидетельств доблестной борьбы жителей Отроры с монголами они доблестно сражались за то, чтобы не дать своему городу легко сдаться врагу. В данной статье борьба наших предков с захватчиками за мир Родины рассматривается в масштабах города О'Трор, а доблестная борьба наших предков с врагами, вторгшимися на нашу землю, служит важным источником для изучения истории наших предков, пожертвовавших своей жизнью за свободу Родины.

Ключевые слова: Вторжение монгольских войск в О'трор. Оборона города и сопротивление народа, падение и разрушение города.

Annotation. This article analyzes the valiant struggle of the inhabitants of the city of O'trar against the Mongol invaders who invaded the state of the Khorezm kings and the destruction caused by the invading Mongols in the city of O'trar. On the basis of written sources and historical evidence, the valiant struggle of the Otrora people against the Mongols is that they valiantly fought for their cities not to be easily surrendered to the enemy. In this article, the struggle of our ancestors against the invaders for the peace of the motherland is considered on the scale of the city of O'tror, and the valiant struggle of our ancestors against the enemies who invaded our land serves as an important source for studying the history of our ancestors who sacrificed their lives for the freedom of the homeland.

Key words: Invasion of Mongol troops to O'tror. City defense and people's resistance, city fall and destruction.

KIRISH

Xorazm – Markaziy Osiyoning eng qadimiy va boy tarixga ega mintaqalardan biri bo‘lib, ming yillar davomida siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishining muhim markazi bo‘lgan.

Shu sababli Xorazmga turli davrlarda dushmanlar bostirib kirgan. Oldin forslar keyinchalik turk xoqonligi, arablar, mo‘g‘ullar, ruslar kabi bosqin chilar xorazmga bosqinchilik yurushlarini uyishtirgan.

Xorazm tarixi nafaqat mahalliy manbalarda, balki xorijiy manbalarda ham keng yoritilgan.

Xorazmning geografik joylashuvi - Amudaryo bo‘yidagi strategik hudud uni qadim zamonlardab buyon savdo va madaniyatlararo aloqalar choraxasiga aylantirgan. Jahon miqyosida hozirgi davr globollashuv jarayonlari sharoitida yoshlar ongida vatanparvarlikni shakllantirishda va vatan parvar yoshlarni tarbiyalashda ona vatan ozodligi yo‘lida jon fido etgan ajdodlarimiz tarixini o‘rganish va uni bugungi yosh avlodni tarbiyalashda bunday manbalardan foydalanishimiz zarur. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev takidlaganidek “Vatani sevish –ulug‘ fazilat” deb takidlab yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz zarur.

METODOLIGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘tror fojiasi tarixini o‘rganishda yozma manbalar hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar asos qilib olindi. O‘tror fojiasini o‘rganishda shu davr tarixchilari Rashididdin, Juvayniy, Ibn al-Asir kabi tarixchilar. Zamonaviy tatqiqotchilardan (Bartold, Karimov, Yoqubov va boshqalar) asarlaridan olgan ma’lumotlar asosida qiyoslab o‘rganildi.

O‘tror fojiasi - mo‘g‘ullar istilosi davrida Xorazm shohlar davlatiga qarashli O‘tror shahrini qahramonona mudofa qilinishi. Muhammad Xorazmshohning O‘trordagi noibi G‘oyirxon Inolchiq tomonidan mo‘g‘ul savdogarlarining o‘ldirilishi va molmulklarini musodara etilishi (1218 yil) Chingizxoning O‘rta Osiyoga bostirib kirishi uchun bahona bo‘lgan. Bir yildan keyin Chingizxon Xorazmshohlar saltanatiga yurish boshladi O‘tror mudofasini Inolchiq boshlik 20 ming kishilik qo‘shini bor edi. Shuning dek Muhammad Xorazmshoh Qoracha hojib boshlik 10 ming askarni yordamga yuborgan. Ammo Qoracha hojib shahar mudofasi og‘ir payda o‘zining 10ming kishilik askari bilan So‘fiyxon (So‘fiyxona) darvozasidan chiqib mo‘g‘ullarga ta‘slim bo‘ladi. Ammo xiyonatkorlikni mo‘g‘ullar ham kechirishmagan Qoracha hojib va 10 ming askarini mo‘g‘ullar qatl etirishadi .30 minglik O‘tror mudofachilari dushmaning 200 ming kishilik qo‘shiniga qarshi 5oy shaharni mudofa qaldilar. dushman shaharni egalash uchun turli tosh otar qurollardan foydalandi shahar atrofidagi handaqlarni shox shabalar bilan to‘ldirib tashladadi. tosh otar qurollardan yog‘dirilgan toshlar va yonuvchi moddalar qal’a devorini vayronaga aylantirgan.

Inolchiq 20 ming askari bilan shahar ichidagi, mustahkam qal’aga kirib olib yana 1oy davomida o‘zidan son jihatdan bir necha yuz barobar g‘anim bilan qahramona jang qilgan. so‘ng Chig‘atoy va O‘qtoylar uni tiriklayin asir olib Samarqandga Chingizxon huzuriga keltirganlar.

So‘ngra O‘tror mudofasi rahbari kuchli qiynoqa solinib qatl etilgan. Shu tariqa uzoq qarshiliklardan so‘ng O‘tror mo‘g‘ullar qo‘liga o‘tgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘tror fojiasi mo‘g‘ullarning shafqatsiz ekanliklarini ko‘rsatib beradi. Ona vatanimizni mo‘g‘ullar bosqinidan himoya qilish uchun ajdodlarimiz mardonavor kurash olib bordilar. bu yo‘lda jonlarini ham ayamadilar ammo Xorazm shohlar davlati mo‘g‘ullar davlatiga qaraganda siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan hali kuchli edi.

Biroq Muhammad Xorazmshohning olib borgan noto'g'iri diplomatiyasi va dushman kuchlariga o'z vaqtida to'g'iri boho bera olmasligi va taklif etilgan rejani rad etib qo'shinini qal'alarga bo'lib joylashtirishi. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoni bosib olinishini tezlashtirishga sabab bo'ladi. Natijada mo'g'ul bosqinchilari O'rta Osiyo va Yaqin Sharq ning Xorobaga aylanishiga sabab bo'ladi. Asrlar davomida shaklangan sivilizatsiya va madaniyatning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ldi.

XULOSA

O'tror fojiasiga asosiy sabab qilib shuni aytishimiz mumkinki avvalam bor Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bilan olib brogan noto'g'iri siyosati, va mo'g'ullarning kuchiga notog'iri boho berishi va G'oyirxon Inolchiq tomonidan mo'g'ullar savdogarlarining o'ldirilishi va mol-mulklarini musodara qilinishi sabab bo'ldi.

Keyinchalik Chingizxon Inolchiqni mo'g'illarga topshirilishini talab qilib kelgan elchilarni Muhammad Xorazmshoh tomonidan soch – soqollari olinib sharmandalarcha yurtiga yuborilishi mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kirishga bahona bo'ladi. Mo'g'ullar hujumi arafasida chaqirilgan harbiy kengashda Muhammad Xorazmshohning Jaloliddin Manguberdi va Xo'jand hokimi Temur Maliklar tomonidan qo'shinlarni asosiy joylarga to'plash yoki bir joylga to'plab zarba berish kabi to'g'iri taklifini ma'qullamasdan. Har bir qal'a o'zini o'zi mudofa qilsin deya chiqargan qarori sabab bo'ladi.

Shunday bo'lsada ajdodlarimiz dushmanga qarshi so'ngi tomchi qoni qolguncha kurashgan buni O'tror shahri misolida aytishimiz mumkin. O'tror shaharini yengilishiga ya'na bir sabab qal'a ichida birlik yo'qligi yani Qoracha hojib o'z boshimchalik bilan dushmanga So'fixon darvozasini ochib ta'slim bo'lishi bunga yaqol dalil bo'ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi 4947-son farmonining 1- ilovasida keltirilgan <<2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirilishining beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi>>.
2. Juvayniy "Tarixi jahon kushyoy" XIII asr boshlari.
3. Buniyodov Ziyov "Anushtagin Xorazmshohlar davlati" T. 1998 yil.
4. A.Sagdullayev, U.Mavlonov "O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi" Toshkent 2006 yil.
5. Bahodir Eshov "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi" Toshkent -2012 yil